(4). D.E.Madraximova. “Barqaror rivojlanish maqsadlari: ta’lim tizimida gender tenglikni ta’minlash imkoniyatlari”. ASI In-academy.uz/index.php/yo

(5). N.J.Yusupova, B.B.Mamadiyev, M.M.Haydarov. “Islomda gender tenglikning o‘ziga xos tamoyillari”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, Toshkent, “Baktria press”, 2022, 176-bet.

Urazova Guli Uringaliyevna (Urganch davlat Pedagogika instituti magistranti; e-mail: urazovaguli02@gmail.com)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA NOSIRIDDIN TUSIYNING “AXLOQI NOSIRIY” ASARINING O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buyuk mutafakkir, olim, ensiklopedik Nosiriddin Tusiyning “Axloqi Nosiriy” asaridagi ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy, pedagogik qarashlarning boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda asari asnosida ma’naviyat soatlarini tashkil qilish metodikasi haqida fikrlar bildirilgan. Ushbu maqolada “Axloqi Nosiriy” asardagi hayotiy misollar va hikmatli o‘gitlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda halollik, kattalarga hurmat, to‘g‘ri so‘zlik, bir-biriga hurmat hamda do‘stlik fazilatlarini tarbiyalashning amaliy ahamiyati ham ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Nosiriddin Tusiy, pedagogik qarash, “Axloqi Nosiriy”, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ma’naviyat, tarbiya, komil inson, ma’naviyat soati.*

Уразова Гули Урингалиевна (магистрант Ургенчского государственного педагогического института; e-mail: urazovaguli02@gmail.com)

РОЛЬ ПРОИЗВЕДЕНИЯ НАСИР АД-ДИНА ТУСИ “АХЛАКИ НАСИРИ” В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются духовно-нравственные, воспитательные и педагогические взгляды великого мыслителя, учёного-энциклопедиста Насир ад-Дина Туси, изложенные в его произведении “Ахлаки Насири”, а также их значение в процессе начального образования. Кроме того, в статье высказываются мысли о методике организации занятий по духовно-нравственному воспитанию на основе данного произведения. Показано практическое значение воспитания у учащихся начальных классов таких качеств, как честность, уважение к старшим, правдивость, взаимное уважение и дружба, на примере жизненных ситуаций и мудрых наставлений, представленных в произведении “Ахлаки Насири”.*

Ключевые слова: *Насир ад-Дин Туси, педагогические взгляды, “Ахлаки Насири”, учащиеся начальных классов, духовность, воспитание, совершенная личность, урок духовности.*

Urazova Guli Uringaliyevna (Master’s student, Urgench State Pedagogical Institute; e-mail: urazovaguli02@gmail.com)

THE ROLE OF NASIR AL-DIN TUSI’S WORK “AKHLAQ-I NASIRI” IN FORMING THE SPIRITUALITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. *This article examines the spiritual-moral, educational, and pedagogical views presented in the work “Akhlaq-i Nasiri” by the great thinker, scholar, and encyclopedist Nasir al-Din Tusi, as well as their role in the process of primary education. The paper also discusses methodological approaches to organizing spirituality lessons based on this work. In addition, the practical significance of fostering such qualities as honesty, respect for elders, truthfulness, mutual respect, and friendship among primary school students through life examples and wise teachings found in “Akhlaq-i Nasiri” is highlighted.*

Keywords: *Nasir al-Din Tusi, pedagogical views, Akhlaq-i Nasiri, primary school students, spirituality, education, morally mature individual, spirituality lesson.*

Kirish. Ta’lim ijtimoiy hodisa bo‘lib. uning tarixi juda uzoqdir. Ta’lim kishilik jamivati rivojining dastlabki davridayoq katta rol o‘ynagan. U to‘plangan tajribalarni dunyo haqidagi axborotlarni berish jarayonini ta’minlagan, insoniyatning faqat ijtimoiy rivojlanishiga emas, balki qiyin sharoitlarda yashay olishiga ham yordam bergan [1;32-b.]. Ta’lim orqali inson borliqni anglaydi. Yosh avlodni tarbiyalashda ta’lim va tarbiyani chambarchas olib borish lozim. Bu borada biz ajdodlarimizning boy ilmiy merosi, tajribasi hamda milliy, qadimiy qadriyatlariga suyanamiz. Ayniqsa, Sharq mutafakkir, olimlarining asarlarini muhim o‘rini mavjud. Shuningdek, ta’lim aqlni charxlasa, tarbiya esa ko‘ngilni, insonni ichki dunyosini poklashga yordam beradi. 13-asrda yashab ijod qilgan allomalardan biri Nosiriddin Tusiy ham bola tarbiyasida axloqiy tarbiyaning o‘rni naqadar muhim ekanligini ta’kidlab o‘tgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Axloqi Nosiriy” – uchta katta maqoladan tashkil topgan. Birinchi maqola – “Axloqning poklantirilishi haqida” 2 qism (“Asoslar” (7-bob), “Maqsadlar” (10-bob)dan iborat

bo‘lib, unda xulqiy tarbiya va axloqiy xislatlarni egallash, axloqning asosiy tushunchalari: donolik, adolat, shijoat va iffat haqida mufassal so‘z yuritilib, axloq ilmining maqsad va vazifalari belgilab beriladi. Ikkinchi maqola – “Uy xo‘jaligi ilmi haqida” (5 bob) oila va oilaviy hayot masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bolalarni tarbiyalash va kamolga yetkazish, kasb-hunarni egallash, xulq-odob qoidalari, nutq madaniyati va boshqalar yoritiladi. Uchinchi maqola –“O‘lka (shaharlarni) idora etmoq qoidalari” 8 bobdan iborat, u ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan, unda shahar, ya’ni, davlatda yashovchi xalqlar, davlat boshlig‘i va fuqarolarning o‘zaro munosabati, jamiyat haqida fikr-mulohazalar keltirilgan [2;4-b.]. Tusiyning fikriga ko‘ra, nafsda 2 ta quvvat bo‘ladi, bular ilmiy va amaliy. Shuning uchun ham, komillikning ham 2 turi bo‘ladi deb hisoblagan. Ilmiy komillik quvvatiga ega bo‘lgan shaxs hamisha yangi bilimni egallamoqqa intilib yashovchi, ya’ni, borliqni anglashga harakat qiluvchi deb hisoblaydi. Shundagina uning yuragi sokinlashadi, shubha-gumonlari o‘chib ketadi.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Nosiriddin Tusiy o‘z tarjimayi holida ilm o‘rganish maqsadida juda ko‘plab olimlar bilan uchrashganligi va ulardan olgan saboqlari sababli fanlarning turli sohalarini takomillashtirishda davom etganligini ta’kidlab o‘tadi. U ilm olgan ustozlari haqida to‘xtalar ekan, matematika, astronomiya, trigonometriya bo‘yicha Kamoliddin Abdul Fattoh Muso Mosuliy, falsafa ilmini Qutbiddin Misriy, musulmon fiqhini Shayx Mo‘yniddin, mantiq ilmini Faariddin Damad va boshqalardan o‘rganligini e’tirof etadi [3].

Ilk navbatda, bolaning tabiatiga, nimaga qodir ekanligiga nazar etmoq, aql farosotiga fikr bermoq, mushohada natijasida uni tabiatida qaysi san’atga va ilmga ko‘p mayl borligini muayyanlashtirmoq, so‘ngra esa shu ish bilan ham mashg‘ul ettirmoq vojibdir, chunki hammaning butun kasb va san’atga qobiliyati ayni bo‘lmaydi, yo‘qsa insonlarning hammasi eng sharofatli san’at bilan mashg‘ul bo‘ladi [2;191-b.]. Darhaqiqat, o‘quvchilar barcha fanlarni birday teng o‘zlashtira olmasligi mumkin. Shunda o‘qituvchi o‘quvchisining qaysi fan yoki sohaga qiziqishini aniqlashtirib olishi va bu qiziqishlarini rivojlantirishi zarur. Qaysidir bola matematik fanida oqsayotgan bo‘lsa, u tasviriy san’atga yoki musiqaga qiziqishi baland bo‘ladi. Bunda shu sohaga to‘g‘ri yo‘naltirilishi kerak, bu esa ushbu o‘quvchining kelajakda o‘ziga mos kasb tanlash olishiga, kelgusi katta hayotga qadam bosganida katta xizmat ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Nosiriddin Tusiyning asarlaridagi g‘oyalarini boshlang‘ich ta’lim jarayoniga quyidagicha tadbiq qilishimiz mumkin:

•Ota-onalar bilan hamkorlik. O‘qituvchi bunda o‘quvchilarning ota-onalarini sinf majlisiga chaqirishi kerak va birgalikda Tusiyning bola tarbiyasi hamda oilada ota-onaning majburiyatlari, bolaga munosabatlari haqida suhbat qurib, tahlil qilishlari kerak. Bu borada har bir insonning fikri tinglanishi va shu asosida biror-bir dolzarb mavzu muhokama qilinishi kerak.

•Hikmatlar burchagi. Bunda Tusiyning asarlaridagi o‘gitlari asosida sinf burchagini tashkil qilish va shu asnosida hikmatli so‘zlarni yozib, o‘quvchilarning axloqiy qarash va tafakkurlarini shakllantirish mumkin. Masalan, “Axloqi Nosiriy” asaridagi quyidagi hikmatli so‘zdan foydalansak bo‘ladi:

Agar ming bir sifatda o‘xshasa, ikki inson,
Diqqat bilan boqqanda unda ham farq toparsan! [2;76-b.]

Ushbu jumlani sinf burchagiga yozib ma’naviyat, tarbiyaviy darslarda ko‘rgazmali qurol sifatida foydalanish mumkin. Hikmatli so‘zlar o‘quvchilarga o‘qib berilishi va birgalikda har bir o‘quvchi o‘zining mustaqil fikrini tanqidiy usulda bildirishi mumkin. Demak, Tusiy har bir shaxs turlicha yaratilgani, garchand qiyofasi bir xil bo‘lsa ham, biror-bir qismida, albatta, farq bo‘lishini ifodalamoqchi. Albatta, bu fikr chuqur falsafiy ma’noga ega, chunki insonlar bir-biriga o‘xshagani bilan ham baribir uning o‘rgangan bilimi, qilgan amallari, hayot tarzi, odatlari, tarbiya va xulqi tubdan farq qilishi mumkin. Shuning uchiun ham, diqqat bilan kuzatilsa, ya’ni, sinchiklab qaralsa haqiqiy farq faqat insonning tashqi ko‘rinishida emasligi, balki ichki dunyosida ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

•Didaktik o‘yinlar. Didaktik o‘yinlarni dars jarayonida maqsadli foydalanish va tizimli kiritish o‘quvchilarning faolligi hamda bilim sifatini yanada yaxshilashga yordam beradi. “Xulosangizni ayting” metodi. Bu metodda o‘qituvchi o‘quvchilarga biror hikmatli so‘zni o‘qib beradi. O‘quvchilar esa o‘z mustaqil fikrlari asosida hikmatli so‘zlarga xulosa qilishlari kerak bo‘ladi. Xulosa ixcham, sodda, tushunarli va sinfdagi o‘quvchilarning bilim darajasiga mos bo‘lishi kerak. Fikrlarini ketma-ketlikda hamda izchil izohlab berishlari shart.

•Ibratli matnlar. Olimning asarlaridagi matnlarini qisqa va lo‘nda qilib tahrirlab, sinfdan tashqari o‘qish darslarida material tarzida foydalanishimiz mumkin. Bunda hikoyadagi asosiy ma’no-mazmuniga o‘zgartirish kiritmay, faqat boshlang‘ich sinflarga mos qilib sharhlar kiritishimiz kerak. Bu esa o‘quvchilarda axloqiy qarashlarini boyitishga, tafakkurini rivojlantirishga va tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yor-

dam beradi. Masalan, “Oz so‘zlashni, sukut saqlashni, so‘raganda javob berishni, kattalarga quloq solishni o‘rganish kerak, noloyiq so‘zlar, haqorat, o‘rinsiz kalimalar ishlatmoqdan xijolat chekish kerak, go‘zal, zarif, yoqimli kalomlardan foyda yetganda ta’rif etishi, bunday so‘zlashishga odat emoqqa rag‘bat uyg‘otishi kerak. U o‘zini muallimiga, o‘zidan yoshi ulug‘ bo‘lganlarga hurmat va xizmat etmoqni bilish kerakdir. Buyuk odamlarning avlodlari bunday xulq-atvor qoidalariga juda ko‘p muhtojdirlar. Uning muallimi aqlli, vijdonli, axloq me’yorlariga, bola ruhiyatini tanishga, shirin so‘zlashda, insofli raftorda, viqorli, ajoyib xatti-harakatda, poklik va tozalikda mashhur, shohlarning xosiyatidan, odat va an’analaridan, aysh-ishratlaridan, majlis va suhbatlaridan bexabar, jamoatning har tabaqasi bilan so‘zlashishni bajaradigan, razil va olchoq odamlardan qochadigan bo‘lishi kerak” [2;189-b.]. Darhaqiqat, har joyda o‘rinsiz, ortiqcha so‘zlardan foydalanmaslik lozim, bu orqali inson boshqalarni hamda o‘zini noqulay vaziaytga solib qo‘yishi mumkin. Kattalarni hurmat qilib, ularni gaplariga, quloq solishi hamda ularning oldida hurmatsizlik qilib tarbiaysini, ma’naviy darajasini hali to‘laqonli shakllanmaganligini ko‘rsatib qo‘yishi mumkin. Bu esa o‘sha insonning oldida o‘z qadr-qimmatini,ya’ni darajasini pasaytirgan bo‘ladi. Shunday ekan, biror-bir so‘zni so‘zlamasdan oldin, albatta, uni tafakkur va mushohada qilib keyingina so‘zlashi zarur. Bu orqali o‘zining ichki madaniyati va tarbiyasi yetuk rivojlanganini namoyon qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganimizda, ta’lim berish jarayonida ajdodlarimizning bebaho meroslaridan, ya’ni, asarlaridan foydalanish ta’lim sifatni oshirishga hamda barkamol, komil shaxslarni tarbiyalashga yordam beradi. “Axloqi Nosiriy” asaridagi g‘oyalar yosh avlod ma’naviyatini rivojlantiruvchi hamda ma’naviy komolatini ta’minlashda xizmat qiluvchi foydali va axloqiy ta’lim-tarbiya beruvchi manba sanaladi. Xususan, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning axloqiy ongini rivojlantirishga, umummilliy qadriyatlarga sodiq hissini uyg‘otishga, ularni komil shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiluvchi qimmatli asarlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O‘quv qo‘llanma, R.Mavlyanova, N. Raxmankulova. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent, “Vori”, 2013, 32-bet.

(2). Axloqi Nosiriy [matn]. Risola, Xo‘ja Nosiriddin Tusiy. Buxoro, «Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, 2022.

(3). https://bukhari.uz/?p=25622&lang=oz#:~:text=Nasiriddin%20Tusiy%20o%CA%BBz,etadi.%5B4%5D

Bakirov To‘lqinjon Yunusaliyevich (Farg‘ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd), dotsent; Bakirov_t75@mail.ru),
Anvarov Rashidjon Ravshanbek o‘g‘li (Farg‘ona “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyi o‘qituvchisi; fiz1999mat@gmail.com)

AKADEMIK LITSEYLARDA EHTIMOLLAR NAZARIYASI ELEMENTLARINI O‘QITISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ehtimollar nazariyasi elementlarini akademik litseylarda o‘qitishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati hozirgi kundagi raqamli iqtisodiyot, axborotlashgan muhit va zamonaviy jamiyat taraqqiyoti talabidan kelib chiqqan holda asoslangan. O‘quvchilar ongida ehtimollar nazariyasi oid bilimlarni shakllantirish orqali ularning tasodifiy voqea-hodisalarni tahlil qilish hamda ularni baholay olishi, real kundalik hayotiy vaziyatlarda matematik modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish kerakligi ilmiy jihatdan ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, ushbu masalalarni hal qilishda ta’lim jarayonini tatbiqiy yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Ushbu maqola akademik litsey o‘quvchilariga ehtimollar nazariyasi elementlarini o‘qitishni takomillashtirish, shu bilan birgalikda, matematik tafakkurlarini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *ehtimollar nazariyasi, akademik litsey, ijtimoiy zaruriyat, statistik tahlil, tatbiqiy yondashuv, real hayotiy vaziyatlar.*

ОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ЭЛЕМЕНТАМ ТЕОРИИ ВЕРОЯТНОСТЕЙ В АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЯХ

Аннотация. *В данной статье обоснована социально-педагогическая необходимость обучения элементам теории вероятностей в академических лицеях, исходя из требований современной цифровой экономики, информатизированной среды и развития современного общества. Научно доказано, что формирование у обучающихся знаний по теории вероятностей способствует развитию умений анализировать и оценивать случайные события и явления, а также формированию навыков математического моделирования в реальных повседневных жизненных ситуациях. Кроме*